

ZULFIYANING SHE'RLARIDA BADIY SAN'ATLARNING O'RNI

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Tuliboyeva Gulsevar Zafar qizi

Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti

Yusupov Sardor Shodi o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonimning ayrim she'rlari tahlil ostiga olingan. She'rlarda qo'llanilgan badiiy san'atlarning she'r mazmunini va ohangdorligini yanada oshirishi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: She'r, badiiy va she'riy san'atlar, "Bahor keldi seni so'roqlab", o'xshatish, nido san'atlari.

She'riyat har doim badiiy san'atlarsiz tasvirlanmagan va badiiy san'atlarsiz tasavvur qilib ko'rilmagan. She'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga ko'ra lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalandirilishiga misralar, baytlar va bandlarning lafziy nazokati, musiqiyli, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Hech qaysi she'r she'riy san'atsiz dunyoga kelmaydi. She'riy san'at ifodalanmagan she'r xuddi soyasi yo'q daraxtga o'xshab qoladi. She'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilishi, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarini jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.

U yoki bu shoir ijodiga u yoki bu badiiy asarga baho baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muommolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning mantiqiy asoslanishi va shu kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.

Zulfiyaxonim Isroilovaning sherlarini juda ham chiroyli she'riy san'atlar va katta mahorat bilan bizga taqdim qilgan. Shoir o'zining barcha she'rlarida juda ham ko'p va turli xil badiiy san'atlardan mohirona va juda noziklik bilan ifodalagan desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Bahor keldi seni so'roqlab" she'riga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu she'rning har bir misrasida badiiy san'atlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan,

"Salqin saharlarda bodom gulida

Binafsha labida yerlarda bahor" [1:7]

Bu misralarining ikkinchi misrasida tashbeh yani o'xshatish badiiy san'atini qo'llagan. Tashbeh san'ati bu sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib "o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani va ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir va bu yerda binafsha labida birikmasini tashbeh qilib olishimiz mumkin, chunki binafshaning labi bo'lmaydi va bu qo'llagan san'ati she'rni ohangdorligini oshirishiga yordam bergan. Bu she'rda eng ko'p qo'llangan badiiy san'at bu tashxis san'atidir.

Tashxis bu “jonlantirish” hayvonlar, qushlar, jonsiz narslarga inson xususiyatlarini ko‘chirish san’ati hisoblanadi va bu she’rda u bahir faslini jonlantirishga muvaffaq bo‘lgan. Masalan,

“Mana qimmatligim yana bahor kelib
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni
U ham yosh to‘kdiyi, chekildi nari.”

Bu yerda bahor fasli kelib tinmay shoirni izlagani va lekin topolmay juda g‘amgin holatga tushgani tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin.

Bahor faslini gapitirib bu she’rda “intoq” she’riy san’atini vujudga keltiradi. Intoq she’riy san’ati aslida gapirtirish, so‘zlatish ma’nosidagi intoq she’riy san’ati hisoblanib u badiiy asarda haybonlar yoki jonsiz narsalarni xuddi inson singari gapirtirishi yoki so‘zlatishiga aytiladi. Bunga misol qilib,

“Qani men kelganda kulib qarshilab
Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan
Baxtim bormi deya yakkash so‘roqlab
Meni she’rga o‘rab suqlanib boqqan.” [1:45]

Bu misralarda bahor faslini so‘zlatgani va intoq she’riy san’atini ifodalaganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

“Urush noming o‘chsin jahonda
Hamon bitmas sen solgan alam
Sen tufayli ko‘p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.” [1:52]

Bu o‘g‘lim sira bo‘lmaydi urush she’rida nido badiiy san’atini qo‘llagan. Nido san’ati aslida arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib “qichqiriq, chaqiriq” degan ma’nolarni ifodalaydi. Bu undalma qo‘llash deb ham aytiladi va shoir kimgadir murojaat qilishiga aytiladi.

Bu she’rda urushga nido qilinyapti, ya’ni urushga qarata qichqiryapti.

Bu maqolamizdan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Zulfiyaning barcha she’rlarida she’riy san’atlarni juda tartibli, chiroyli va mohirona foydalana olgan hisoblanadi. Bu she’riy san’atlar orqali she’rning mazmuni, jozibadorligi, ohangdorligini oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zulfiya Isroilova. Bahor keldi seni so‘roqlab, she’rlar. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2019. 192 b.
2. Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent. Iqtisod-moliya, 2007. 304 b.
3. Anvar Hojiahmedov. Sher san’atlari. Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent, 2001. 95 bet
4. Dilmurod Qurinov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, Noshir, 2019. 336 bet.